O'zbekiston olimlari Olmaotadagi simpoziumda

Qozog'iston Respublikasining Olmaota shahrida "O'rta Osiyo qishloq xo'jalik lanshaflarida ekologik monitoring, yer va suv resurslarini boshqarishning zamonaviy metodlari" mavzusida Xalqaro simpozium bo'lib o'tdi.

Simpoziumda jahonning etakchi universitetlari,ilmiy-tadqiqot markazlari va tadqiqot institutlari, jumladan, Ozarbayjon, Germaniya, Xitoy, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston va Yaponiyadan yuzga yaqin olimlar ishtirok etdi. Mamlakatimiz delegatsiyasi besh kishidan tashkil topgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti, Navoiy bo’limi raisi Abdurazzoq Mirzayev va Qoraqalpoq bo’limi Tabiatshunoslik instituti direktorining o'rinbosari Svetlana Mambetullayevalar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tomonidan ishtirok etishdi.

O'zR FA Navoiy bo'limi raisi A.Mirzayev tadbir ishtirokchilarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, hurmatli Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirishga va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlanmalarga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidlab, O'zbekistonning ilm-fan, ishlab chiqarish va ta'lim tizimidagi integrasiyasini FA Navoiy bo’limi misolida ko`rsatib berdi.

Qozog'istonliklari Navoiy viloyati Uchquduq tumanida joylashgan aziz avliyo Qanorboy Ota to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash fondi tomonidan moliyalashtirilayotgan "Navoiy viloyatidagi cho'l hududi tarixi va unga aloqador afsonalar" loyihasi doirasida Navoiy bo’limi xodimlari tomonidan turli manbalardan to`plangan ma'lumotlarga qiziqish bildilar. Qozog'istonlik tarixchilar va o`lkashunoslar ushbu mavzuni o`rganishni kengaytirish va butun Qizilqum cho'lini qamrab olish va qardosh xalqlarning umumiy tarixini tiklash bo'yicha yaqin hamkorlikni o'rnatish taklifi bilan chiqdilar.

Yalpi majlisda dunyoning turli mamlakatlaridan etakchi olimlar, tuproq qatlamining hozirgi holati va tuproqni tadqiq etish, yer va suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish mamlakatlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yangi fikr va mulohazalar bilan o'rtoqlashdi. Taqdimotlarda turli tuproq-iqlim sharoitlarida, tuproq unumdorligini saqlash va takomillashtirish bo'yicha innovatsion usullar va texnologiyalarda o'tkazilgan tadqiqot natijalari yoritilgan. Tuproqning tanazzulga yuz tutgan jarayonlar, ularning oqibatlarini kamaytirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni izlab topish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bundan tashqari, seksiya majlislarida A. Mirzayev “O'zbekiston Respublikasi Navoiy viloyati misolida olimlar va fermerlarning tandemlari samaradorligi” va S.Mambetullayeva “Janubiy Orol hududlari tuproqlarining hozirgi holatini ekologik baholash” to`g`risida ma'ruza qildi. Muhokama chog'ida ishtirokchilar sho'rlik va tuproq eroziyasi muammolarini hal etish, Markaziy Osiyoda uning unumdorligini oshirish bo'yicha hamkorlik to'g'risida kelishib oldilar.

Simpozium yakunida ishtirokchilar faol ishtirok etganligi uchun sertifikatlar bilan taqdirlandilar.